



Imomnazarov Hasan Ixtiyor o'g'li,

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti Mustaqil izlanuvchisi

e-mail: hasanboyimomnazarov@gmail.com;

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSH OILA SOTSIOLOGIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiologik tahlilning dolzarb mavzusi – oilaviy qadriyatlarning asosiy masalalari va jihatlari, oila ijtimoiy institutining tarkibiy qismi sifatida yosh oila o'zining shakllanishi va rivojlanishining turli bosqichlari va muayyan funksiyalari, yosh oilaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, ularning sabab va oqibatlari hamda ularni hal etish yo'llari to'g'risida so'z boradi. Bundan tashqari, yosh oilalar misolida zamonaviy jamiyatda nikoh va oila qadriyatlaridagi sezilarli o'zgarishlar kabi hodisalarning ta'siri va oilaviy muammolarni hal etish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Аннотация. В данной статье обсуждается актуальная тема социологического анализа – основные вопросы и аспекты семейных ценностей, различные этапы становления и развития молодой семьи как компонент социального института семьи и ее специфические функции, материальные и духовные потребности молодой семьи, их причины и последствия, а также пути их достижения. Кроме того, на примере молодых семей были высказаны мнения о влиянии таких событий, как существенные изменения брачно-семейных ценностей в современном обществе и решение семейных проблем.

Annotation. Topical issue of sociological analysis is the main issues and aspects of family values, various stages of formation and development of a young family as a component of the social institution of the family and its specific functions, material and spiritual needs of a young family, their causes and consequences, as well as ways to achieve them are discussed in this article. In addition, using the example of young families, opinions were expressed on the influence of such events as significant changes in marital and family values in modern society and the solution of family problems.

Tayanch soʻzlar: oila, nikoh, ijtimoiy institut, yosh oila, qadriyat, ijtimoiylashuv, funktsiya, barqarorlik, ehtiyoj.

Ключевые слова: семья, брак, социальный институт, молодая семья, обычай, социализация, функция, устойчивость, потребность.

Keywords: family, marriage, social institution, young family, tradition, socialization, function, stability, need.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlardan muhimi bu oila instituti boʻlib, aytish mumkinki, u ijtimoiy institutlar doirasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradigan va bolani boʻlajak shaxsning ijtimoiylashtirish jarayonini oʻtkazadigan oʻziga xos qoʻrgʻondir. Jamiyatni tashkil etuvchi shaxslarni voyaga yetkazish, kamol toptirish hamda ularning farovonligini taʼminlash masʼuliyati ham aynan oila zimmasidadir. Oila – nikoh, qarindoshlik, farzand asrab olish yoki bolalarni tarbiyalashning boshqa shakllaridan kelib chiqadigan, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga yordam beradigan mulkiy va nomulkiy, shaxsiy huquqlar bilan bogʻlangan shaxslar guruhidir. Zero, oila – bu shaxsiy hayotni tashkil etishning muhim shakli boʻlib, kichik ijtimoiy guruh sifatida oilaviy birlik va oilaviy aloqalar, turmush oʻrtoqlar, ota-onalar va bolalar, aka-uka, opa-singillar va hamkorlikda yashaydigan va birgalikda xoʻjalik yurituvchi boshqa qarindoshlar oʻrtasidagi munosabatlarni oila deb aytishimiz mumkin.

Asosiy qism. Oila instituti sotsiologiyada eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. U jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy tartibini saqlab qolishda muhim rol oʻynaydi. Oila sotsiologik tahlil uchun juda muhim jamiyatni rivojlanishiga katta hissa qoʻshadigan ijtimoiy institutdir, chunki u jamiyatning asosiy tayanchi boʻlib hisoblanadi. Jamiyatda kishi oila orqali ijtimoiylashadi, yaʼni ijtimoiy qadriyatlar, meʼyorlar va anʼanalarni oʻzlashtiradi. Oila sotsiologiyada turli ijtimoiy jihatlar bilan oʻrganiladi. Jumladan, ijtimoiy rol taqsimoti, iqtisodiy vazifalari, madaniy va maʼnaviy vazifalari, ijtimoiy reproduksiya, taʼlim va tarbiya berish funksiyalari hamda jinsiy, avlodlararo almashinuv va nikoh munosabatlari kabi jihatlar bilan oʻrganiladi.

Oila institutining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni aytib oʻtishimiz mumkin:

1. *Ijtimoiylashuv.* Oila insonlarni ijtimoiy meʼyor va qadriyatlar bilan tanishtiruvchi birinchi muhitdir. Bu jarayonda bolalar oilada maʼnaviy, axloqiy va madaniy koʻnikmalarni egallaydilar va jamiyatning faol aʼzolari boʻlib shakllanadilar.

Nikoh – ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh bu mamlakat qonunchiligida belgilangan tartibda, har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi sharoitida turmush o‘rtog‘ini tanlash maqsadida tuzilgan erkak va ayol o‘rtasidagi teng huquqli birlikdir.

2. *Reproduktiv vazifa.* Oila yangi avlodni dunyoga keltiradi va tarbiyalaydi. Bu jarayon jamiyatning davomiyligini ta’minlaydi va uning barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

3. *Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash.* Oila iqtisodiy jihatdan ham muhimdir, chunki ko‘p hollarda oilaning a‘zolari bir-birlarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydilar. Yangi avlodning iqtisodiy farovonligi ham oilaning ichki iqtisodiy barqarorligiga bog‘liq.

4. *Emotsional qo‘llab-quvvatlash.* Oila insonlarga sevgi, mehr va himoya beruvchi asosiy muhitdir. Oila a‘zolari o‘rtasidagi yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash psixologik barqarorlik va emotsional salomatlikni ta’minlaydi.

5. *Ijtimoiy maqomni belgilash.* Oilaning ijtimoiy holati va maqomi ko‘p jihatdan uning a‘zolarining jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Kishi o‘zi tug‘ilgan oila orqali insonlar ma’lum bir ijtimoiy guruhga tegishli bo‘ladilar va bu ularning kelajakdagi imkoniyatlari, ijtimoiy munosabatlari va resurslariga ta’sir qiladi.

Ma’lumki, har qanday hodisa va jarayonning boshlanishi tabiiy va ijtimoiy qonuniyatdan iborat. Nikohdan kelib chiqqan oila institutining dastlabki davrini yosh oila davriga ajratamiz. Nikoh oilani yaratishning asosi, birdan-bir manbayi hisoblanadi.

Nikoh – ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh bu mamlakat qonunchiligida belgilangan tartibda, har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi sharoitida turmush o‘rtog‘ini tanlash maqsadida tuzilgan erkak va ayol o‘rtasidagi teng huquqli birlikdir [1]. Tarixan olib qaraganda, kishilar boshidanoq oilani tashkil etibgina qolmay, uning ma’naviy pokligiga, oilani qonuniylashtiradigan urf-odat va an’analarga rioya qilishga alohida e’tibor bergan.

Keling, endi yosh oila haqida berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqsak. Olimlar yosh oila haqida turlicha ta’rif berganlar, jumladan, rossiyalik olim D.Pavlenok yosh oilaga quyidagi ta’rifni beradi: “Yosh oila – bu nikohdan keyingi dastlabki uch yildagi oila. Turmush o‘rtoqlarning yoshi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan oilalardir”, deya ta’rif bergan.[2]

Yana bir olim Mustayeva F.A. “Yosh oila o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichida, nikoh tanlovini amalga oshirish bosqichi o‘ziga xos holat hisoblanib, oiladagi muloqot er-xotinning oila uchun muhim bo‘lgan ma’lum maqsadlarga erishish, shuningdek, yaqin kishi bilan ma’naviy yaqinlikdagi shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun sa’y-harakatlarining izchilligi va yo‘naltirilganligini ta’minlaydi”, deya o‘z fikrlarini bayon etgan [3].

Sotsiologlar Y.M.Zuykova va N.V.Kuznesovalarning fikriga ko‘ra, “Yosh oilada har ikkalasi ham o‘ttiz yoshga to‘lmagan bo‘lsa, birinchi

nikohda bo'lgan uch yilgacha bo'lgan oilalarni o'z ichiga olishi kerak", deya fikr bildirishgan [4].

Sotsiolog T.A.Gurko M.S.Maskovskiy bilan hamkorlikda, bir oz boshqacha ta'rif berishadi. Bunda yuqoridagi olimlarga qaraganda, "Nikoh muddati – 5 yil bo'lishi, chunki, odatda, bu vaqtga kelib, er-xotinlar kamida bitta farzandli bo'lishi va oilani shakllantirish bosqichlaridan biri tugagan davridir", deya o'z qarashlarini bayon etgan [5].

Yuqoridagi barcha fikrlarga asoslanib, biz yosh oilani nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan, quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar guruhi, deb tushunamiz:

- er-xotinlarning yoshi 30 yoshdan oshmasligi;
- nikohning davomiyligi besh yildan ortiq bo'lmasligi;
- har ikkala er va xotin uchun birinchi nikoh bo'lishi kerak.

Sotsiologiyada yosh oila (yangi tuzilgan oila) tahlili jamiyatning muhim tadqiqot sohalaridan biridir. Yosh oila jamiyatning dinamik tarkibiy qismi sifatida qaraladi, chunki u ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga tezda moslashadi va bu jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Yosh oilaning ijtimoiy portreti quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: yosh oilalarni shakllantirishning demografik shartlari, oilaviy qadriyatlar, funksiyalar, nikoh va oilaviy munosabatlar, reproduktiv salomatlik va ijtimoiy munosabatlar, turmush darajasi kabilarni kiritishimiz mumkin. Biz ulardan ba'zilarining xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

1. *Oilaviy tuzilish va roli.* Yosh oila ikki yangi turmush qurgan odamning yangi ijtimoiy birlik hosil qilishi bilan bog'liq. Bu bosqichda oila tuzilishi va undagi ijtimoiy rollarning taqsimlanishi katta ahamiyatga ega. Yosh oila hayotida turmush o'rtog'i sifatida yangi rollarni qabul qilish va muvozanatni topish zarurati paydo bo'ladi. Sotsiologik jihatdan olib qaralganda, oilaviy rollar taqsimoti (er va xotin o'rtasidagi mas'uliyatlar, qaror qabul qilish jarayoni va hokazo) jamiyatdagi gender munosabatlariga ham bog'liq.

2. *Iqtisodiy vaziyat va moslashuv.* Yosh oilalar ko'pincha iqtisodiy jihatdan mustaqillik yo'lini izlaydilar. Bu davrda iqtisodiy barqarorlikka erishish, uy-joy xarid qilish, moddiy imkoniyatlar yaratish kabi masalalar muhimdir. Ayniqsa, sotsiologlar yosh oilalar iqtisodiy muammolarni qanday yengishlarini va bu muammolarning oila ichidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladilar.

3. *Avlodlararo munosabatlar.* Yosh oilalar ko'pincha katta avlod (ota-onalar va qarindoshlar) bilan mustahkam aloqalarga ega bo'ladilar. Bunda, yoshi kattalar yosh oilaga maslahat va yordam ko'rsatadilar.

***Sotsiologiyada
yosh oila (yangi
tuzilgan oila)
tahlili jamiyatning
muhim tadqiqot
sohalaridan
biridir. Yosh
oilalarning
dinamik tarkibiy
qismi sifatida
qaraladi, chunki u
ijtimoiy, iqtisodiy
va madaniy
o'zgarishlarga
tezda moslashadi
va bu jarayonlarni
o'zida aks ettiradi.***

***Zamonaviy
jamiyatda oilaviy
munosabatlarning
o'zgarishi –
masalan, ajralish
darajasining
oshishi yoki
farzandsiz
oilalarning
ko'payishi,
nikoh yoshining
o'zgarishi –
jamiyatning
umumiy
rivojlanishi
va qadriyatlar
tizimidagi
o'zgarishlarga
bog'liq bo'lishi
tabiiy.***

Sotsiologiyada bu holat avlodlararo munosabatlar va oila tizimidagi ijtimoiy yordam shakllarini o'rganishda ahamiyatlidir.

4. *Nikoh va ajralishlar.* Yosh oilalardagi nikoh barqarorligi yoki ajralishlar darajasi jamiyatdagi sotsiologik tahlillar uchun qiziqarli mavzu bo'lib, ajralish omillari va sabablari, oiladagi nizolar va ularni boshqarish usullari tadqiq qilinadi. Yosh oilalardagi nizolar ko'pincha moliyaviy qiyinchiliklar, muloqotdagi nomuvofiqlik yoki umidlarning bajarilmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

5. *Madaniy va ijtimoiy qadriyatlar.* Yosh oila jamiyatdagi umumiy madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Yosh oilalar turli ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilish yoki rad etish orqali yangi munosabatlar yaratadilar. Masalan, an'anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlarning to'qnashuvi, gender tengligi masalalari, oilaviy mehnatning taqsimlanishi bu jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarning o'zgarishi. Masalan, ajrashish darajasining oshishi yoki farzandsiz oilalarning ko'payishi, nikoh yoshining o'zgarishi – jamiyatning umumiy rivojlanishi va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda, sotsiologiyada jamiyatning tayanchi bo'lgan oilani o'rganishda asosiy rol o'ynaydi. Biz sotsiologik tadqiqotlar orqali yosh oilalarning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy muhitga qanday moslashayotganini, ularning qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini va jamiyatdagi o'zgarishlar qanday qilib yosh oilalarning xulq-atvori va munosabatlariga ta'sir ko'rsatayotganini ko'rib chiqdik.

Birinchidan, yosh er-xotinning madaniyati va axloqiy saviyasi barchada ham to'liq qoniqarli darajada shakllanmagan. Ikkinchidan, ular ota-onalarning fikri va maslahatlarini shaxsiy hayotiga tajovuz sifatida qabul qilish holatlari uchramoqda. Uchinchidan, er-xotinning oilani yaxshi tushunmasligi va o'ta yuqori darajada shakllangan shaxsiy "men"i ko'pincha ajralishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi va to'rtinchidan, muammolarga duch kelgan yoshlar o'zlarini emas, balki boshqalarni ayblashni boshlaydilar. Yosh oilalarning bugungi kundagi qiyinchiliklari ushbu muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarini o'rganish va tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassislarning fikricha, yosh oilalarga oid ijtimoiy siyosat, birinchi navbatda, uy-joy muammolarini hal etish, bog'chalar tizimini takomillashtirish, yoshlarda mustahkam, ijtimoiy sog'lom oila qurishga munosabatini shakllantirishga qaratilishi kerak [6]. Shuning uchun men yosh oilalarning muammolarini muayyan qiyinchiliklar va manfaatlar bilan turli toifadagi xizmatlarga bo'linishni targ'ib qilish orqali hal qilish

mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, oilaga xos bo'lgan turli faoliyat turlarini, oilaning vazifalarini, oilani o'rganishni qamrab oluvchi bilim sohalarini o'zida mujassamlashtirgan jarayonlar ham oila shaxsning shaxsga aylanishining boshlang'ich bosqichi ekanligini tasdiqlaydi.

Biz ham oila institutining asosiy tamoyilini aks ettirgan holda, uning vazifalari jamiyat va shaxs talablari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xulosaga kelishimiz mumkin. Bundan tashqari, oilaning funksiyalari tarixiy xususiyatga ega. Ular jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq. Vaqt o'tishi bilan oila instituti bajaradigan funktsiyalarning tabiati ma'lum darajada o'z yo'nalishini o'zgartiradi. Barcha qadriyatlar tanazzulga yuz tutayotgani, oilaviy hayot va ijtimoiy qadriyatlar shaxs shakllanishi va fuqaro mavqeyini mustahkamlashga ta'sir etuvchi ijobiy o'zgarishlarning asosiy omillari hisoblanadi. Shunday qilib, yakunda shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyat taraqqiyoti jarayoni, urf-odatlardagi yangiliklar, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, demografik va boshqa omillar oila tarkibiga, oila a'zolarining o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oilalarni, jumladan, yosh oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadli dasturlari (loyihalari)ni shakllantirish, ularni moddiy, ma'naviy va boshqa xizmatlar bilan ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-maishiy muammolarni hal etishda ko'maklashish, yosh oila a'zolarini ish bilan ta'minlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, reproduktiv salomatlik masalalari bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, shuningdek, bobo-buvilar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha o'z bilimlarini ulashishlari, yosh oila egalari bo'lmish er va xotinning ta'tillarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, yurtimizda yosh oilalarni mustahkamlash borasida juda ko'p ishlar qilinmog'i zarur, deb hisoblab, quyidagi taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mamlakatimizda yosh oilalar masalalari bo'yicha ijtimoiy monitoring o'tkazish;
- yosh oilalar uchun uy-joy qurish va sotib olishda subsidiyalar, maqsadli imtiyozli kreditlar, ipoteka kreditlari, davlat va munitsipal uy-joylarni ijaraga berish mexanizmlarini joriy etish va bu yo'nalishda berilayotgan imtiyozlarni jadallashtirish, kam ta'minlangan yosh oilalar uchun uy-joy sharoitlarini yaxshilash, davlat qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;
- yosh mutaxassislarning mehnat huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish;

Vaqt o'tishi bilan oila instituti bajaradigan funktsiyalarning tabiati ma'lum darajada o'z yo'nalishini o'zgartiradi. Barcha qadriyatlar tanazzulga yuz tutayotgani, oilaviy hayot va ijtimoiy qadriyatlar shaxs shakllanishi va fuqaro mavqeyini mustahkamlashga ta'sir etuvchi ijobiy o'zgarishlarning asosiy omillari hisoblanadi.

- yosh oilalarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish maqsadida ijtimoiy xizmatlar tizimini shakllantirish, ta'lim, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-huquqiy, psixologik-pedagogik, axborot, maslahat va boshqa xizmatlarni takomillashtirish;

- yosh oilalar uchun oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yosh er-xotinlar hayot yo'lida ko'plab muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy hol. Ularning aksariyatini yosh oilalar har doim mustaqil ravishda hal qila olmaydilar va ular davlat tomonidan ko'rsatilishini kutadilar. Shu bois hozirgi ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh oilalar masalalari kundankunga dolzarb bo'lib, zarur ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatishda davlatning roli muttasil ortib bormoqda. Respublikamizda oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga, yosh oilalarni moddiy ko'maklashishga, pirovardida oilaning farovonligini ta'minlashga doimiy e'tibor qaratib, davlatimizning dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish, aholini, jumladan, yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish kun tartibidagi dolzarb bo'lgan mavzudir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – N harfi.* – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B. 234.
2. *Pavlenok P.D. Ijtimoiy ish asoslari*” darsligi. – Moskva. . – B. 125.
3. *Mustaeva F.A. Zamonaviy jamiyatda oila / maqola.* . – B. 8-10.
4. *Zuikova E.M., Kuznetsova N.V. Yangi turmush qurganlar: amalga oshmagan orzular.* – Москва: Infra-M, 2014. – B.49.
5. *Gurko T.A., Matskovskiy M.S. O'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda ota-ona.* – M: EKSMO-PRESS, 2017. – B. 221.
6. *Oila va jamiyat: ma'naviy va axloqiy dunyo // Jamoat fikri so'rovi natijalari bo'yicha axborot-tahliliy ma'ruza.* “Ijtimoiy fikr” markazi, 2018.